



O'ZBEKISTONDA XOR SAN'ATINING RIVOJLANISHI

Xabibullayeva Mubinaposhsha Saidakbar qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti Musiqa ta'lif yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: Mazur maqolada qadimgi cherkov qo'shiqchiligi uyg'onish davridan tortib ko'p ovozli xor ijrochiligi rivojlanish jarayonlari, turli diniy marosimlarda, mavsumiy sayllarda, ramazon oyida bolalarning qo'shiq aytishi yoki kattalarning zikr, marsiya qo'shiqlarini aytishini bilan keng rivojlangan o'zbek xor san'atining tarixi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy ijodiyot, xalq qo'shiqlari, polifonist, xor ijrochiligi, kompozitor, xormeyster, xorshunoslik, san'at.

Развитие хорового искусства в Узбекистане

Хабибуллаева мубинапошиша сайдақбаровна Студент 3 курса музыкального образования факультета социально-гуманитарных наук и искусств Андижанского государственного педагогического института.

Аннотация: В этой статье рассказывается о процессах развития многоголосного хорового исполнительства с эпохи возрождения древнего церковного пения, истории узбекского хорового искусства, широко развитого во время различных религиозных обрядов, сезонных праздников, пения детей во время Рамадана или исполнения взрослыми поминальных, марсианских песен.

Ключевые слова: музыкальное творчество, народное пение, полифонист, хоровое исполнение, композитор, хормейстер, хоровое искусство, искусство.

Development of choral art in Uzbekistan

Khabibullayeva mubinaposhsha saidakbar daughter Music education direction 3-year student of the Faculty of social humanities and arts of Andijan State Pedagogical Institute.



Annotation: The Mazur article describes the history of Uzbek Choral Art, which developed widely from the renaissance of ancient church singing to the development processes of multi-voice choral performance, in various religious ceremonies, seasonal Sayles, during the month of Ramadan, with the singing of children or the mention of adults, the singing of Marcia.

Keywords: musical creativity, folk songs, polyphonist, choral performance, composer, chorumeister, choral studies, art.

Xor shunday bir san'at turiki unda adabiy va musiqiy ijodiyot o'zaro uyg'unlashib yaxlit badiiy obraz yaratiladi. Xor san'ati uzoq o'tmishga ega. Qadim zamonlardan beri xalqlar orzu-umidlari, his-tuyg'ularini qo'shiq aytish pantomima qilish kabi vositalar bilan ifodalab kelganlar. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytish deyarli hamma xalqlarning mehnat faoliyati, an'anaviy marosimlari, qolaversa, butun turmush hayoti bilan doimo bog'liq bo'lib kelgan. Ushbu san'at turli xil xalqlarning milliy musiqa merosini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

Xor san'ati ommani loqayd eshituvchiga emas balki faol tinglovchi bo'lishga undaydi. Xor san'ati rivojlanishida slavyan xalq (rus, ukrain, bolgar, polyak, chex, xorvat va boshqa)lari katta hissa qo'shib kelishgan. G'arb davlatlarida, shuningdek, Rossiyada xalq qo'shiqlari bilan bir qatorda keyinchalik cherkovda aytildigan professional xor ijrochiligi paydo bo'lgan. Qadimgi cherkov qo'shiqchiligi asosan, unison (bir ovozli yoki oktava) X asrda ikki ovozli qo'shiqlar sifatida paydo bo'lgan. Uyg'onish davriga kelganda ko'p ovozli xor ijrochiligi rivojlanib bordi. XII – XIII asrlarda Dj. Palestrina O.Lazev, K.Janeken, J.Depre kabi polifonist kompozitorlar yashab ijod qilgan bo'lib, bu davrda xor san`atining A KAPELLA ijrochilik uslubi yanada ravnaq topdi. XIV-XVI asrlarda xor ijrochiligi yanada taraqqiy topdi.

Xor san`ati mashhur xor guruhlari, kompozitorlar, xor arboblari va xormeyster o'qituvchilarining ijobiy faoliyati bilan bog'langan holda rivojlanib keldi. Xor dirijyorligi mahoratini takomillashtirish va xorshunoslikning ayrim qismlariga bag'ishlangan ilmiy va metodik qo'llanmalarning muntazam yaratilishi



sababli mazkur fan asta-sekinlik bilan rivojiana bordi. Masalan, 1961-yilda nashr etilgan K.Olxovning “Xor dirijyorligi haqida” kitobini, 1964 yilda nashr etilgan K. Pigrovning “Xorga rahbarlik qilish” kitobini, 1969 yilda nashr etilgan V.Krasnoshlyokovning „Xorshunoslik masalalari” kabi san`at namunalarini fikrimizga isbot bo‘la oladi. Ma`lumki, O‘zbekistonda xor havaskorligi asta-sekinlik bilan rivojlangan. Mazkur san`at turining jadal suratlar bilan rivojlanishi malakali xormeyster o‘qituvchilar tayyorlash masalasi bilan bog‘liq edi. Madaniyat instituti va pedagogika institutlari musiqa fakultetlari, pedagogika bilim va musiqa bilim yurtlarida bolalar va kattalar havaskorlik xorlariga rahbarlar musiqa o‘qituvchilari tayyorlash uchun xorshunoslik fani uchun o‘zbek tilida 5 maxsus darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarining yo‘qligi va shu kamchilikni qisman bo‘lsa ham tugatish maqsadida Shamsiddin Ro‘ziev tomonidan “Xorshunoslik” kitobining nashr etilishi san`at jamoatchiligi orasida katta qiziqish bilan kutib olindi. Bundan tashqari, 1987 yilda „Xorshunoslik” qisqacha o‘quv qo‘llanmasi nashr etildi. Bu qo‘llanma muallifi Naira SHarafievadir. Ushbu darslikda jamoa bo‘lib kuylashning tarbiyaviy ahamiyati, xorlarning turlari haqida ma`lumotlar beriladi. Hamda jamoa bo‘lib kuylashga o‘rgatishning shu paytgacha amaliyotda qo‘llab kelinayotgan metodlari haqida tushuncha beriladi.

Muhokama:

XX asrning 20-yillarida O‘rtta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi o‘z professional xor san`atiga ega bo‘lmasada lekin qadim zamonlardan beri guruh (xor) bo‘lib qo‘shiq aytish an`analariga ega bo‘lgan. O‘zbek xalqi ham boshqa xalqlar kabi asrlar davomida o‘zini mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan musiqiy durdonalarini yaratgan e`zozlagan va uni og‘zaki usulda avloddan-avlodga qoldirgan. Turli diniy marosimlarda, mavsumiy sayllarda, ramazon oyida bolalarning qo‘shiq aytishi yoki kattalarning zikr, marsiya qo‘shiqlarini ayttilishi ham guruh ijrosining bir turidir. An`anaviy “Navro‘z” va “Lola sayli” bayramlarida yigit va qizlarning qo‘shiq aytishi, qadim zamonlardan beri to‘ylarda aytildigan (yor-yor, yallalar o‘lan, hashar, besh qarsak, lapar) va maqomlardagi (tarona, ufor, naqsh) ayrim qismlarini guruh



(xor) bo‘lib aytish kabi ijrochilik formalari kelgusida o‘zbek xalqi orasida xor havaskorligi o‘zbek xor san`atining rivojlanishiga zamin bo‘ldi.

Xor atamasi yunoncha so‘z “choros” so‘zidan olingan bo‘lib “to‘da, yig‘in” ma`noni anglatadi. Xor-bu vocal musiqali cholg‘u asboblari jo‘rligida yoki jo‘rligisiz asarni ijro etuvchi xonandalar jamoasidir. Musiqa amaliyotida davomida xorning har xil turlari va ko‘rinishlari mavjud. Xor turi uning tuzilishi va sifatiga qarab aniqlanadi. Respublikada musiqa va xor badiiy havaskorligi, asosan XX asrning 20 yillaridan boshlab rivojlnana bordi.

Xususan, shu yillarda o‘quvchi va yoshlar o‘rtasida (maktablar va o‘quv yurtlarida) musiqa havaskorligi keng tarqaldi. Musiqa, xor va raqs to‘garaklari tuzila boshlandi. Har bir to‘garakda, albatta bir ovozli kichik xor ansambli bo‘lib, yallalar, laparlar, qo‘shiqlar va gimnlar ijro etilgan. 1919 yilda V. Sakovich tomonidan tashkil qilingan mакtab-teatr guruhi 300 ta bolani birlashtirdi. Bu guruh ham bir necha (xor, dramma, raqs) guruhini o‘z ichiga olgan edi. Sakovich shu “Zebuniso” maktabida tuzilgan qizlar xori yaxshi natijalarga erishdi va keyinchalik (1924- yil) bu xor “San`atchi qizlar” nomi bilan yuritildi. 1919 yilda SH. SHoumarov “Namuna” nomli o‘zbek maktabida, 1922 yilda Saodatxonim Enikeeva Toshkent inprosida o‘zbek qizlaridan shunday guruh tuzdilar. Usta Olim Komilov Marg‘ilonda, Matyusuf Harratov Samarqandda bir necha yil havaskorlik guruhlari bilan ishlashadi. 30-yillarga kelib, musiqa xor havaskorligida katta o‘sish ko‘zga tashlandi. 1937 yilda Moskvada o‘tgan O‘zbekiston adabiyoti va san`ati dekadasiga va 1938 yilda o‘tgan birinchi badiiy havaskorlik olimpiadasiga tayyorlanish va o‘tkazish davrida musiqa-xor havaskorlik guruhlari son jixatdan ko‘paydi. 1946 yilda badiiy havaskorlikning ikkinchi Respublika olimpiadasi o‘tdi. Olimpiadada 20 ming kishini o‘z ichiga olgan mingdan ortiq (1143) havaskorlik kollektivlari qatnashdi. Olimpiada yakuni musiqa havaskorligidagi mayjud qator kamchiliklarni aniqlab berdi. Bular qishloq tumanlarida musiqa-xor havaskorligining yomon rivojlanganligi, ko‘p ovozli o‘zbek xorlarining yo‘qligi, ko‘pchilik guruhlarning dasturida zamonaviy asarlarning kamligi va hokazolardir.



1947–1948 yillarda o‘tkazilgan ko‘rik va O‘zbekistonning 25 yillik yubileyiga bag‘ishlab o‘tkazilgan uchinchi Respublika Olimpiadasi Respublikada musiqa-xor havaskor guruhlari faoliyatida birmuncha siljish borligini tasdiqladi. Uchinchi olimpiadadan boshlab musiqa-xor havaskorlarining ko‘p ovozlik turi rivojlana bordi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda xor san’ati boy tarixga ega va bugungi kunda ham faol rivojlanishda davom etmoqda. Ko‘plab xor jamoalari o‘z ijodi bilan muxlislarni xursand qilib, mamlakatning madaniy hayotiga munosib hissa qo‘shmoqdalar. Bugungi kunda ham xor jamoalari o‘z faoliyatlarini samarali tarzda olib borishmoqda, ayniqa umumta’lim maktablarida ham xor jamoalrini shakllanib borayotgani quvonarli xol, shunday ekan ertangi kunimiz istiqbollari qalbi go‘zal musiqa bilan oshifta bo‘lib tarbiyaqlanib kelayotgan yoshlar o qo‘lida desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xor va xorshunoslik. Z.Sultonova. O‘quv qo‘llanma
2. Sh.Ro‘ziyev. Xorshunoslik. Toshkent 1987 yil.
3. Q. Mirzayev. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent. 2008 yil..
4. Abdumalikovna, YD (2021). Jamiyat taraqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni va ahamiyati. Zien ijtimoiy va gumanitar fanlar jurnali, 3, 1-3.
5. Achildiyeva M, Ikromova F O‘zbekistonda xor san’ati Botir Umidjonov Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Bryussel, Belgiya 2022) ISSN 27957683 54-56 bet.
6. [Full-Paper-CREATIVITY-THE-BASIS-OF-PEDAGOGICAL-CREATION.pdf](#)
7. Botirova Khilola Tursunbayevna, . (2023). IN THE PRACTICE OF INSTRUMENTAL PERFORMANCE, STUDENTS ARE TAUGHT TO THINK INDEPENDENTLY AND FORMATION OF FEATURES OF CREATIVITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(11), 99–103.
<https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-17>



8. Tursunbaeva, Botirova Xilola. "New approach to vocal-choral skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1638-1654.
9. Tursunbaeva, Botirova Xilola "New approach to vocal-choral skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1638-1654. [cejsr.academicjournal.io>index.php/journal/...](http://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/)
10. "New approach to vocal-choral. skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research. Journal 11.4 (2021): 1638-1654. Tursunbaeva, Botirova Xilola.
11. Khilola Tursunbaeva Botirova STUDENT, VIDYALANKAR INSTITUTE OF TECHNOLOGY [DOI: https://doi.org/10.36713/epra6721](https://doi.org/10.36713/epra6721)
12. Botirova Khilola Tursunbayeva, . (2023). WAYS OF DEVELOPING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF THE STUDENT - YOUTH THROUGH PERFORMING ART OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(06), 61–66. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-06-11>
13. [324am_2.EPRA JOURNALS-6742.pdf](#)
14. Botirova, K. T. . (2021). Performance And Art. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 465–474. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue05-83>
15. Botirova Khilola Tursunbayeva, . (2023). WAYS OF DEVELOPING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF THE STUDENT - YOUTH THROUGH PERFORMING ART OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(06), 61–66. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-06-11>